Abstract. This article examines in detail the problem of ecology, which is rapidly deteriorating and has become one of the most pressing problems of all countries today. Also, the process of implementing the norms of international environmental law into the national legislative system in the Republic of Uzbekistan will be comprehensively analyzed. The article examines the theoretical and legal foundations, mechanisms, and practical problems of implementing international environmental law into the national legislative system. In particular, the reflection of international environmental obligations in the national legal system, the institutional and regulatory aspects of their coordination, as well as their interrelationship with the principles of sustainable development are highlighted. During the analysis, based on a comparative legal analysis, such problems as gaps in national legislation in this area, weak institutional coordination, ineffectiveness of economic mechanisms, shortcomings in the mechanisms for implementing international conventions, and insufficient personnel potential in the field of environmental protection were studied. In addition, the article provides theoretical recommendations for strengthening the implementation process based on foreign experience. In particular, the need to correctly apply and adapt the norms of environmental legislation of a number of countries to our laws was noted. The study developed proposals and recommendations aimed at increasing the effectiveness of national environmental policy, ensuring environmental safety, and fully fulfilling international obligations.

Keywords: ecological monitoring, implementation, biodiversity, single ecological information portal, ecological expertise, European Union environmental directives, institutional coordination

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda global ekologik muammolar jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va havoning ifloslanishi kabi hodisalar nafaqat xalqaro hamjamiyatni, balki har bir davlatni ekologik barqarorlikni ta'minlashga majbur etmoqda. Shu bois xalqaro ekologik huquq normalari davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan harakatlarni ta'minlash va atrof-muhitni himoya qilishning mustahkam mexanizmi sifatida rivojlandi.

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy muammolardan biri – atrof-muhitning degradatsiyasi, global isish va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanishdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yilda tasdiqlangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)ning 13-, 14- va 15-maqsadlari aynan ekologik muammolarni huquqiy tartibga solish orqali hal etishga qaratilgan (United Nations, 2015). Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun xalqaro ekologik huquq normalarini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'kidlaganidek: *“Atrof-muhitni asrash – bu xalqimiz farovonligi, sog'lom kelajak uchun javobgarlik masalasi-dir”* (Mirziyoyev, 2023).

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi xorijiy davlatlar bilan bir qancha sohalarda kelishuvlarni amalga oshirgan bo'lib, jumladan, Parij Iqlim kelishuvi (2015-y.), BMTning Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyasi (1992-y.) hamda Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1992-y.)ga a'zo bo'lgan. Ushbu xalqaro shartnomalar milliy qonunchilikda ekologik standartlar, monitoring tizimi va javobgarlik mexanizmlarini

belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hollarda xalqaro normalarni milliy tizimga to'liq implementatsiya qilishda institutsional va amaliy muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan, ekologik nazorat organlari faoliyatining yetarlicha muvofiqlashtirilmagani, ekologik qonunchilikni qo'llash mexanizmlarining zaifligi va xalqaro standartlarning to'liq integratsiya qilinmagani bunga misoldir.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, unda O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchilik tizimini xalqaro normalar asosida modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi hamda implementatsiya jarayonining huquqiy mexanizmlari ochib berildi. Maqolada Yevropa Ittifoqi, Rossiya Federatsiyasi va AQSh tajribasi misolida xalqaro ekologik normalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish amaliyoti solishtirma-huquqiy tahlil asosida o'rganildi.

Maqolada O'zbekiston ekologik qonunchiligiga xalqaro normalarni tatbiq etishning mavjud holati, chet el tajribasidan o'rganish imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqildi, shuningdek, implementatsiya jarayonini kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. Tadqiqotda xalqaro bitimlarning milliy darajada amalga oshirilishida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llariga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodlar

Maqolada ilmiy tadqiq etishning bir qancha usullaridan foydalanilgan. Jumladan, qiyosiy-huquqiy tahlil, xalqaro hujjatlar tahlili hamda umumilmiy metodlar – kuzatish, umumlashtirish, induksiya, deduksiya hamda analiz-sintez metodlari qo'llandi.

Natijalar

Xalqaro ekologik huquq normalarining milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilinishi – davlatning xalqaro ekologik majburiyatlarni o'z milliy huquqiy tizimida real amalga oshirish jarayonidir. U xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, protokollar va

rezolyutsiyalarni ichki huquq tizimi bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi (Mladenov & Serotila, 2022). Mazkur jarayonning muvaffaqiyati huquqiy tizimning moslashuvchanligi, ekologik siyosatning izchilligi hamda davlat institutlarining amaliy faoliyat darajasiga bog'liq bo'ladi.

Marijana Mladenov va Igor Serotila o'z tadqiqotlarida ekologik adolat tamoyilini xalqaro ekologik huquqning markaziy mezoni sifatida e'tirof etadilar. Ularning fikricha, ekologik huquqning implementatsiyasi nafaqat tabiatni muhofaza qilishni, balki insonning yashash huquqi, sog'lom muhitda hayot kechirish, ijtimoiy tenglik va ekologik xavfsizlikni ham kafolatlaydi. Xalqaro ekologik normalar milliy huquq tizimiga singdirilayotganda adolat, ijtimoiy himoya va barqaror rivojlanish o'zaro uyg'un holda ko'rilishi lozim.

Boshqa bir muallif o'z tadqiqotida ta'kidlashicha, ekologik adolat xalqaro huquqning eng muhim konseptual tayanchi bo'lib, u milliy qonunchilik tizimlariga implementatsiya jarayonining markazida turishi zarur. Har bir davlat xalqaro ekologik majburiyatlarni milliy huquqiy tizimga kiritishda ijtimoiy tenglik va atrof-muhitga nisbatan adolat prinsipini e'tiborga olishi kerak (Yu, 2022). Chunki ekologik siyosatdagi nomutanosiblik – xalqaro me'yorlarni real hayotda qo'llashni qiyinlashtiradi.

Tadqiqotchilar xalqaro ekologik huquqning implementatsiyasi faqat ichki qonunlar bilan emas, balki davlatlararo mas'uliyat tizimi orqali ham kuchaytirilishini ta'kidlaydi. Ularning yozishicha, har bir davlat xalqaro ekologik konvensiyalarni ratifikatsiya qilish bilan birga, o'z milliy qonunlariga ularning to'liq aksini kiritmasa, majburiyat faqat "qog'ozda" qolib ketadi. Shu sababli ular "*dual approach*" – ya'ni xalqaro va milliy mexanizmlarni birgalikda ishlatish modelini taklif etadilar.

Xalqaro ekologik normalarni samarali tatbiq etish uchun faqat qonun chiqarish emas, balki uni nazorat qiluvchi va ijro etuvchi

milliy institutlar kuchli bo'lishi ham muhim. Bu jihatdan ular Yevropa Ittifoqi tajribasiga murojaat qilib, "*environmental governance system*"ni mustahkamlashni har bir davlat uchun zarur shart deb bilishadi. Mualliflarning fikricha, ko'plab davlatlarda implementatsiya mexanizmlarining sust ishlashi asosan siyosiy irodasizlik bilan bog'liq. Ular huquqiy majburiyatdan tashqari, siyosiy majburiyatni ham muhim deb biladi. Chunki xalqaro huquqiy normalar milliy qonunlarda qabul qilinmas ekan, ular amalda hech qanday kuchga ega bo'lmaydi.

Zeyang Yu (2022) esa xalqaro ekologik normalarning milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya etilishi bo'yicha konseptual yondashuvlarni tahlil qilib, uchta asosiy modelni ajratib ko'rsatadi: monistik, dualist va aralash yondashuvlar. Monistik tizimda xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilingach, to'g'ridan to'g'ri milliy huquqiy tizimning bir qismi sifatida kuchga kiradi. Dualistik tizimda esa xalqaro majburiyatlar faqat milliy qonun hujjati qabul qilingandan keyin kuchga kiradi. Aralash model esa bu ikki tizimning optimal uyg'unlashuvi bo'lib, u xalqaro majburiyatlarining milliy qonunchilikka moslashuvini eng samarali tarzda ta'minlaydi.

Zeyang Yu xalqaro ekologik huquqning samaradorligi ko'p jihatdan davlatlarning uni ichki huquq tizimiga qanchalik samarali integratsiya qilganiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro huquq normalari mustaqil mexanizm sifatida ishlamaydi; ular milliy siyosat, qonunchilik va ijro tizimi orqali real kuchga ega bo'ladi. Shu bois, implementatsiya jarayoni xalqaro ekologik boshqaruvning markaziy komponentidir (United Nations Environment Programme, 2023b).

Shuningdek, xalqaro ekologik normalarni samarali amalga oshirish uchun institutsional uyg'unlik zarur. Ya'ni xalqaro tashkilotlar, milliy hukumatlar va mintaqaviy tuzilmalar o'rtasida barqaror hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilmasa, konvensiyalar qog'ozdagi hujjat sifatida qolib ketadi. Shu nuqtayi nazardan,

davlatlar o'z milliy qonunchiligida xalqaro majburiyatlarning aniq mexanizmlarini (masalan, ekologik standartlarni qabul qilish, nazorat tizimini yaratish, hisobot berish majburiyatlari) belgilab qo'yishlari kerak. Z. Yu (2022) xalqaro ekologik boshqaruv tizimini "ko'p darajali iyerarxiya" sifatida izohlaydi: global darajada – BMT va uning maxsus agentliklari, mintaqaviy darajada – IHTT (OECD), ASEAN yoki YI kabi tuzilmalar, milliy darajada esa – davlatlarning o'z ekologik qonunlari va siyosatlari faoliyat yuritadi. Shu uch bosqich o'rtasida muvofiqlashtirilgan huquqiy mexanizmlar bo'lmasa, xalqaro huquqning milliy qonunchilikka implementatsiyasi samarasiz bo'ladi.

Zeyang Yu (2022) O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham dolzarb bo'lgan jihatni qayd etadi: ko'plab davlatlarda xalqaro ekologik bitimlar ratifikatsiya qilindi, biroq ularni milliy qonunchilikda amalga oshirish uchun zarur byudjet, texnik resurs va monitoring tizimi yetarli emas. Shu sababli xalqaro normalarni qabul qilish bilan bir qatorda, ularni real hayotda ishlatish mexanizmlari ham ishlab chiqilishi zarur.

Bundan tashqari, xalqaro ekologik tashkilotlar – BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), va Xalqaro energetika agentligi (IEA) davlatlarga texnik yordam va huquqiy maslahat berish orqali implementatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham muhim, chunki bu tashkilotlar orqali xalqaro ekologik normalarni milliy qonunchilikka moslashtirish jarayonini tezlashtirish mumkin. Xalqaro ekologik huquq samaradorligini oshirish uchun huquqiy uyg'unlik va milliy javobgarlik tizimi birgalikda ishlatilishi lozim. Ya'ni xalqaro normalarni milliy qonunlarga tatbiq etish bilan bir qatorda, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil milliy institutlar yaratilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi amaliyotida aynan aralash modelning samarali jihatlari kuzatiladi. Chunonchi, mamlakat qator xalqaro

ekologik konvensiyalar – Biologik xilmaxillik to'g'risidagi konvensiya, Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risidagi Monreal protokoli, Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Parij bitimi va boshqalarga qo'shilgan bo'lsa-da, ularning huquqiy asoslari milliy qonunchilikda to'liq ifodasini topishi uchun ichki normativ-huquqiy bazalar qayta ishlab chiqilmoqda. Masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi va ekologik xavfsizlik strategiyasi ana shu xalqaro majburiyatlarning milliy shaklda ro'yobga chiqarilgan namunalaridir.

Umumiy izlanishlarda xalqaro ekologik normalarni implementatsiya qilish jarayonida institutsional adolat tushunchasiga e'tiborni yaqqol ko'rish mumkin. Bir qancha olimlarning fikricha, ekologik siyosat faqat qonuniy normalar orqali emas, balki ularni amalga oshiruvchi institutlarning shaffofligi, javobgarligi va xalqaro nazorat mexanizmlariga integratsiyasi orqali muvaffaqiyatga erishadi (International Energy Agency, 2022). Shu jihatdan, O'zbekiston uchun ham ekologik nazorat organlarini mustahkamlash, ekologik ma'lumotlar ochiqligini oshirish hamda fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish zaruriy shartlardan hisoblanadi.

O'z navbatida, xalqaro ekologik huquqni milliy tizimga tatbiq etishda uchta asosiy muammo ajratib ko'rsatiladi:

- 1) xalqaro va milliy huquq o'rtasidagi kolliziyalar;
- 2) institutsional va byurokratik zaiflik;
- 3) xalqaro majburiyatlarning bajarilishida javobgarlik mexanizmlarining sustligi (United Nations Environment Programme, 2024).

Bu muammolarni bartaraf etish uchun bir qancha muhim tajribalarni aytib o'tish maqsadga muvofiq. Jumladan, milliy qonunchilikka xalqaro normalarni kiritish jarayonida yagona monitoring tizimini yaratish hamda ekologik sud amaliyotini kuchaytirish orqali sohaning yanada takomillashuviga erishiladi.

2024-yilda olib borgan statistik tahlillarga ko'ra, BMT Atrof-muhit bo'yicha dasturi (United Nations Environment Programme, 2024) va xalqaro ekologik konvensiyalar dunyo mamlakatlarining atigi 41 foizida milliy qonunchilik darajasida to'liq implementatsiya qilingan (Ministry of Climate and Environment, 2022). Shu jihatdan, O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatdagi ko'plab davlatlar qatorida bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda "Iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish" milliy strategiyasining qabul qilinishi hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikdagi "Ekologik boshqaruvni takomillashtirish" loyihasi O'zbekistonning xalqaro ekologik huquqni amaliyotga joriy etishdagi real qadamlaridir.

Muhokama

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xalqaro ekologik huquqni milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish faqat huquqiy jarayon emas, balki siyosiy irodani, ijtimoiy ongini va institutsional islohotlarni birlashtiruvchi kompleks mexanizmdir. Mladenov, Serotila va Zeyang Yu qarashlarini umumlashtirar ekanmiz, samarali implementatsiyaning uchta tayanch ustuni quyidagilardan iborat, deyish mumkin:

- 1) xalqaro ekologik me'yorlarni milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish;
- 2) ekologik adolat tamoyilini siyosat va amaliyot darajasida mustahkamlash;
- 3) ekologik nazorat, monitoring va javobgarlik tizimini kuchaytirish.

Aynan mana shu yo'nalishlarda harakat qilish O'zbekiston uchun xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarishda, barqaror rivojlaniшни ta'minlashda va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro statistika va raqamlarga nazar slogan holda vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, bir necha muammolar va ular yuzasidan takliflar mavjud:

O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish soha-

sida 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shunga qaramay, ular o'zaro integratsiyalashmagan va xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hisobotiga ko'ra, 2024-yilda mavjud qonunlarning 27 foizi xalqaro ekologik konvensiyalar talablariga mos kelmagan (Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan, 2023). Masalan, Stokgolm konvensiyasi (2001-y.) doirasidagi xavfli kimyoviy moddalarga oid talablar milliy qonunchilikda to'liq ifoda etilmagan. Shu sababli ayrim ekologik xavf darajalari bo'yicha xalqaro standartlar bilan tafovut yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda ekologik nazorat, monitoring va hisobdorlik bilan 10 dan ortiq davlat organi shug'ullanadi, biroq ularning faoliyati yetarlicha o'zaro muvofiqlashtirilmagan. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, O'zbekistonda ekologik ma'lumotlar almashinuvi darajasi 58 foizni tashkil etadi, bu esa Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi o'rtacha 85 foizlik ko'rsatkichdan ancha past (Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2024).

So'nggi besh yilda O'zbekiston bo'yicha ekologik jarimalardan tushgan mablag'larning o'rtacha 72 foizi davlat byudjetining umumiy daromadiga o'tgan, atigi 28 foizi ekologik dasturlarga yo'naltirilgan (United Nations, 2024). Taqqoslash uchun: Germaniyada bu ko'rsatkich 100 foiz, Janubiy Koreyada 92 foizni tashkil etadi (Government of Canada, 2024). Bu iqtisodiy mexanizmning yetarli darajada samarali ishlamayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi hozirda 15 dan ortiq xalqaro ekologik bitimlar va konvensiyalarga a'zo (Stat.sud.uz, 2024), jumladan, Bern konvensiyasi (1979-y.), Ramsar konvensiyasi (1971-y.), Parij bitimi (2015-y.). Biroq bu hujjatlarning milliy darajada bajari-

lishini nazorat qiluvchi yagona organ mavjud emas. BMTning 2024-yilgi “Parij bitimi bo‘yicha milliy hisobot”ida O‘zbekistonning uglerod chiqindilarini qisqartirish bo‘yicha ko‘rsatkichlari 2030-yil uchun belgilangan rejaning atigi 64 foizini tashkil etgani ta’kidlangan (UNFCCC, 2024).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat bo‘yicha ko‘rilgan 540 ta ekologik ishning atigi 37 foizida xalqaro huquq normalari qo‘llangan (Stat.sud.uz, 2023). Bu xalqaro ekologik huquq sohasi bo‘yicha yetuk ilmiy tadqiqotchi va uni amalda tatbiq eta oladigan mutaxassislar yetishmasligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

- ushbu muammoga yechim sifatida yagona Ekologik kodeksni ishlab chiqish orqali barcha mavjud qonunlarni tizimlashtirish va ularni Stokgolm konvensiyasi, Bazel konvensiyasi hamda Parij bitimi talablariga muvofiqlashtirish lozim. Bu yondashuv qonunchilikning aniqligini ta’minlab, xalqaro hisobdorlikni oshiradi;

- “Yagona ekologik ma’lumotlar portalini yaratish orqali barcha idoralar uchun ochiq statistik baza shakllantirish, ma’lumotlar almashuvini raqamlashtirish lozim. Bu tizim Norvegiya va Yaponiya tajribasiga asoslangan holda GIS-platforma orqali boshqarilishi mumkin;

- ekologik jarimalardan tushgan mablag‘larning kamida 80 foizini ekologik tiklash, yashil energetika va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga yo‘naltirishni qonun darajasida mustahkamlash lozim;

- har bir xalqaro konvensiyaning bajarilishi bo‘yicha milliy baholovchi monitoring tizimini joriy etish va natijalarni har yili parlamentga hisobot shaklida taqdim etish lozim. Bu amaliyot Fransiya va Kanadada muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda;

- yuridik universitetlar va malaka oshirish markazlarida xalqaro ekologik hu-

quq yo‘nalishida maxsus o‘quv modullarini kiritish, amaldorlar va sudyalarning xalqaro tajriba almashuvini tashkil etish zarur.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekiston xalqaro ekologik majburiyatlarini yanada samarali bajarish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda ekologik huquqning xalqaro standartlarga to‘liq mos tizimini yaratish yo‘lida sezilarli qadam tashlagan bo‘lard.

Xalqaro ekologik huquq normalarini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish jarayoni – huquqiy mexanizm, institutsional islohotlar va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtiruvchi kompleks jarayondir. Xulosa qilib aytganda, ekologik adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari xalqaro ekologik normalarning milliy tizimga singdirilishida markaziy ahamiyatga ega. Implementatsiya jarayonida institutsional zaiflik, huquqiy kolliziyalar va javobgarlik mexanizmlarining sustligi kabi muammolar aniqlanadi, ularni bartaraf etish uchun monitoring tizimlarini va ekologik sud amaliyotini kuchaytirish tavsiya qilinadi.

Xulosa

Tahlillarga tayangan holda O‘zbekiston misolida bu jarayon aralash model asosida amalga oshirilmoqda, deb aytish mumkin: milliy qonunchilik xalqaro konvensiyalarga muvofiqlashtirilib, bu “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun va “Iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish” milliy strategiyasida amaliy ifodasini topdi. Shu bilan birga, ekologik nazorat organlari faoliyatini mustahkamlash, ma’lumotlar ochiqligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish O‘zbekistonning xalqaro ekologik majburiyatlarini samarali bajarishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, quyidagi mualiflik takliflari ilgari surildi:

1. Ekologik kodeksni qabul qilish va mavjud qonunchilikni yagona tizimga keltirish, xalqaro ekologik shartnomalar bilan muvofiqlashtirish.

2. Milliy ekologik monitoring tizimini xalqaro GIS (*Geographic Information System*)

texnologiyalariga asoslangan yagona platforma sifatida joriy etish.

3. Ekologik jarimalardan tushgan mablag'larning kamida 80 foizini ekologik loyihalarga yo'naltirishni qonun darajasida belgilash.

4. Kadrlar malakasini oshirish markazlarida xalqaro ekologik huquq bo'yicha maxsus o'quv modullarini joriy etish.

5. Har bir xalqaro konvensiyaning milliy qonunchilikka tatbiq etilishini baholovchi yillik hisobot tizimini joriy etish.

Xalqaro ekologik huquqni milliy tizimga tatbiq etishning samarali modeli shaxs-

lar, institutlar va siyosatni birlashtirgan, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi kompleks mexanizm bo'lib, mamlakatning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini xalqaro standartlar darajasida ta'minlaydi.

Fikrimizcha, xalqaro ekologik huquq normalarining O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiyasi jarayonida aralash modelni takomillashtirish, institutsional mustahkamlikni oshirish hamda ekologik adolat tamoyilini markaziy mezon sifatida belgilash mamlakatning ekologik siyosatini yangi bosqichga olib chiqadi.

REFERENCES

1. Government of Canada. (2024). *2023–24 Departmental results report*. Environment and Climate Change Canada.
2. International Energy Agency. (2022). *Uzbekistan 2022 Energy Policy review*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/be7a357c-en>
3. Ministry of Climate and Environment. (2022). *Integrated GIS-based environmental monitoring system*. Government of Norway.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2023, December 20). *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi* [Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan]. President. uz. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
5. Mladenov, M., & Serotila, I. (2022). Human rights' approach to environmental protection – Practice of the Human Rights Committee. *Law – Theory and Practice*, 39(2), 52–64. <https://doi.org/10.5937/ptp2202052m>
6. National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Atrof-muhit monitoringi [Environmental monitoring of the environment]*. https://gov.uz/oz/eco/activity_page/atrof-muhit-monitoringi
7. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Rasmiy statistik ma'lumotlar [Official statistical data]*. <https://gov.uz/en/mfa>
8. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Rasmiy statistik ma'lumotlar [Official statistical data]*. <https://gov.uz/uz/imv/sections/statistika>
9. Stat.sud.uz (2023). *2023-yil Ekologik ishlar bo'yicha statistik hisobot [Statistical report on environmental affairs for 2023.]*. Statistical Portal of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. <https://stat.sud.uz/>
10. Stat.sud.uz (2024). *Sudlar faoliyati bo'yicha statistik ko'rsatkichlar [Statistical indicators of court activities]*. Press Service of the Supreme Court. <https://stat.sud.uz/criminal>
11. UNFCCC. (2024). *Uzbekistan's nationally determined contribution under the Paris Agreement*. Engineering For Change. <https://unfccc.int/NDCREG>
12. United Nations Environment Programme. (2023a). *Annual report 2023*. <https://www.unep.org/resources/annual-report-2023>

13. United Nations Environment Programme. (2023b). *Central Asia data exchange study*. UNEP.
14. United Nations Environment Programme. (2024). *Annual report 2024*. <https://sdgs.un.org/un-system-sdg-implementation/united-nations-environment-programme-unep-56913>
15. United Nations. (2015). *The 17 Goals*. Department of Economic and Social Affairs. <https://sdgs.un.org/goals>
16. United Nations. (2024). *Nationally determined contributions progress report – Uzbekistan*. United Nations Publications.
17. Yu, Z. (2022). Analysis of the effectiveness of international law in global environmental relations from the perspective of international institutional theory. *Journal of Environmental and Public Health*, Article 1505040. <https://doi.org/10.1155/2022/1505040>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)